

LOYIHA –SMETA , (QIDIRUV ISHLARI) PUDRAT

ShARTNOMASI № 10

2022 yil “30” 05

Quva tumani

Keyingi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Farg‘ona tuman Quva tumani obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko‘ruvchi rahbari N.Abdullaev bir tomondan, keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan «Fergana avtomat raschet» mchj nomidan Nizom asosida ish ko‘ruvchi rahbari M.Karimov ikkinchi tomondan O‘zbekiston Respublikasi FKniñg 686-692 moddalari, «Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi qonuni, Qurilish me‘yorlari va qoidalari (KMK 1.03.01) hamda O‘zbekiston Respublikasi VMning sohaga oid qarorlariga asosan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarini bajarishga doir mazkur shartnomani tuzdilar.

1.Shartnoma mavzusi

1.1.Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga asosan “ Quva tumanidagi Qaqir MFY hududida yangi qurilayotgan ko‘p qavatli uylarni elektr uzatish tarmoqlari xamda transformator punktlarini joriy tamirlash ishlari uchun loyiha-smeta, ART, muhandislik-geologik tadqiqotlari natijalari to‘g‘risidagi xulosalar, loyiha ekspertizasini o‘tkazish hujjatlarini tayyorlab bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa tuman Moliya boshqarmasi tomonidan ob‘ektning tuman G‘aznachilik boshqarmasidagi maxsus hisob raqamiga mablag‘ ajratilganidan so‘ng to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

2.Shartnoma buyicha ishlar qiymati

2.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan ishlar qiymati barcha soliklar, yig‘imlar va ajratmalarni o‘z ichiga olgan holda 2022 y. «24» may kungi tanlov hay‘ati yig‘ilishining 85324-sonli bayoniga asosan joriy narxlarda 19 600 000 (O‘n to‘qqiz million olti yuz ming) so‘mni tashkil etadi.

2.2. Ishlarni bajarish ishlar boshlangan kundan e‘tiboran “15” kunni tashkil etadi va bajaruvchi ishlarni belgilangan muddatda buyurtmachiga to‘liq topshiradi.

2.3. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno: - yengib bulmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda qurilish qiymatini ko‘paytirish; - ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda;

2.4. Tegishli asoslar mavjud bo‘lganda, o‘zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o‘rtasidagi shartnomaga qo‘shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

3.Pudratchining majburiyatlari

3.1. Mazkur shartnoma imzolangan kundan ishlarni boshlaydi va barcha ishlarni to‘lik hajmda va muddatlarda o‘zining kuchlari va/yoki jalb kilingan kuchlar bilan tasdiqlangan QMQ, ShNK va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqadi va mazkur shartnomaning hujjatlariga asoslanib bajaradi hamda ishni Buyurtmachiga ushbu shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi;

3.2. Buyurtmachining ruxsatisiz bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga berish ta‘qiqlanadi.

4.Buyurtmachining majburiyatlari

4.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

-mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda ishlarni bajarish uchun tegishli hujjatlarni dalolatnoma bo‘yicha Pudratchiga berish;

-ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta‘minlash;

5.To‘lovlar va hisob-kitoblar.

5.1. Buyurtmachi Pudratchiga tegishli manzilli dasturga asosan mablag‘ ajratilganidan sung shartnoma bo‘yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 % miqdorida avansni o‘tkazadi.

5.2.Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilib, qabul qilingandan so‘ng berilgan avansni proporsional ravishda ushlab qolgan holda, bajarilgan ishlar uchun tuman Moliya boshqarmasi tomonidan ob‘ektning tuman G‘aznachilik boshqarmasidagi maxsus hisob raqamiga mablag‘ ajratilgandan so‘ng ob‘ekt umumiy shartnomaviy qiymatining 70 foizi doirasida amalga oshiriladi.

6.Ishlarni bajarish

6.1. Pudratchi loyiha-SNIP ishlariga loyiha bosh muhandisni tayinlaydi.Bosh muhandis loyiha-smeta hujjatlari QMQ, ShNK va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilishini nazorat qiladi, bajariladigan ishlar bosqichlarini kelishadi va bajarilayotgan ishlar haqida Buyurtmachiga axborot taqdim qilib boradi. Pudratchi loyiha-smeta hujjatlarini belgilangan muddatda, qurilish ishlarini bajarish davomida muammoli holatlar vujudga kelmaydigan holatda asosli hamda sifatli qilib bajaradi.

7.Ishlarni topshirish va qabul qilish

7.1.Pudratchi tomonidan tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi “Shaharsozlik hujjatlari ekspertisasi” DUK tomonidan ekspertizadan o‘tkazilib Buyurtmachiga topshiradi, Buyurtmachi vakili o‘ziga berilgan ishonchnoma bilan ishni nakladnoyga imzo qo‘yib, qabul qilib olgandan keyin, Pudratchi ushbu

Кўриб чиққан юрист: МАННОВОВ ХИКМАТЖОН ХИСЛАТЖОН О‘Г‘ЛИ. Хужжат рақами: ХК5005000663

nakladnoy asosida F-3 schet-faktura rasmiylashtirib, Buyurtmachiga to'lov uchun taqdim qiladi. Loyihaning ishchi hujjatlari yuqoridagi tartib asosida Buyurtmachiga topshirilmagan taqdirda ishlar bajarilmagan hisoblanadi.

7.2. Loyiha-smeta hujjatlarida shartnomadan chetga chiqishlar yoki boshqa kamchiliklar borligi aniqlansa, bunday kamchiliklarni smeta hujjatlarini qabul qilayotganda aniqlash imkoniyati bo'lmasa (yashirin kamchiliklar), bunday holatda Buyurtmachi kamchiliklarni aniqlagandan keyin 10 kun muddatda Pudratchini yozma ravishda ogohlantiradi va kamchiliklarni qisqa muddatda bartaraf etilishini talab qiladi. Pudratchi o'z navbatida mazkur kamchiliklarni o'z hisobidan bartaraf qiladi.

8. Yengib bulmaydigan kuch (fors-major) holatlari

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar bunday majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

9. Kafolatlar

9.1. Pudratchi: - barcha ishlarni to'liq hajmda sifatli va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini, qurilish-ta'mirlash ishlari davomida loyiha-smeta hujjatlari bilan bajarilayotgan ishlar o'rtasida muammoli holatlar bo'lmasligini kafolatlaydi;

10. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

10.1. Buyurtmachi Pudratchiga barcha ishlar bajarilib bo'lingandan keyin belgilangan narxning hammasini yoki ishlarining ayrim bosqichlari tugallangandan keyin narxning tegishli qismini to'laydi. Pudratchi tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo yuzasidan qo'shimcha javobgar sifatida qatnashishga majbur.

10.2. Pudratchi loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari va bajarilgan qidiruv ishlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektni ishlatish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgar bo'ladi. Loyiha-smeta hujjatlari ishlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Pudratchi Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va shunga muvofiq zarur qo'shimcha ishlarni bajarishi shart.

Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

10.3. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, tegishli dastur buyicha loyiha ishlariga mablag'lar berilgandan so'ng o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.4. Pudratchi ishlarni o'z vaqtida bajarish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish davomida ob'ektda loyiha-smeta hujjatlari bilan bog'liq muammoli holat vujudga kelgan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida mulkiy javobgar hisoblanadi va ushbu holat bilan bog'liq zarar to'lig'icha Pudratchidan undirib olinadi.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davlat ekologik ekspertizasi»ning xulosasi asosida ishlarni qabul qilish va uning uchun xaq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish xuquqiga ega.

10.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan harajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

10.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

10.8. Kompaniya byudjetdan mablag' oluvchi tashkilot hisoblanganligi sababli, ob'ektga byudjetdan mablag' ajratilishi kechikkanligi uchun yoki tuman Moliya boshqarmasi tomonidan ob'ektning tuman G'aznachilik boshqarmasidagi maxsus

hisob raqamiga mablag' ajratilmaganligi sababli Buyurtmachi to'lovlarni amalga oshira olmaganligi uchun, pudratchi oldida mulkiy javobgar bo'lmaydi va penyalar ham hisoblanmaydi.

10.9. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 350-moddasi 1-qismiga ko'ra, Buyurtmachining majburiyatlari quyidagi hollarda bekor bo'ladi, agar davlat organining hujjati chiqishi natijasida majburiyatni bajarish to'liq yoki qisman mumkin bo'lmay qolsa, majburiyat to'liq yoki uning tegishli qismi bekor bo'ladi.

11.Korrupsiyaga qarshi kurashishga doir majburiy shartlar

11.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar:

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lgan har qanday hatti-harakatlarni amalga oshirmaslik;

- shu jumladan, pora taklif qilmasligi, va'da bermasligi, tovlamachilik qilmasligi, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pora olishga, ya'ni moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni olishga rozilik bermasligi, pora beruvchining manfaatlarini yo'lida kompaniya xodimi o'z lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayan harakatlarni bajarmasligi shart;

- tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish uchun choralar ko'rilishini kafolatlaydilar;

- agar tomonlar shartnoma shartlarining buzilishiga duch kelsa, shuningdek, Buyurtmachi xodimlarining ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lgan hatti-harakatlari, shu jumladan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganligi haqida aloqa kanallariga murojaat qilishi mumkin.

12.Nizolarni hal qilish

12.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar o'zaro hal etolmasa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Farg'ona tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

13.Shartnomani bekor qilish

13.1.O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 381-sonli qarorining 3-bandiga asosan 2020 yil 1 iyulga qadar arxitektura tashkilotiga berilgan qaror talablaridan kelib chiqib qayta rasmiylashtirilmaganligi aniqlangan holda (Pudratchining litsenziyasini o'zgartirish ma'lum bo'lishi).

13.2.O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasi texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlari qismida o'tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo'yicha Pudrat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan arxitektura-shaharsozlik hujjatlariga ijobiy xulosa berilmagan taqdirda.

13.3.Pudratchi pudrat shartnomasini bajarishga o'z vaqtida kirishmasa yoki ishni sust bajarishi natijasida uni belgilangan muddatda tugatish mumkin emasligi aniq bo'lib qolsa, Buyurtmachi ish natijasi o'ziga belgilangan tartibda to'liq va sifatli shaklda topshirilguniga qadar istagan vaqtida shartnomadan voz kechishi mumkin.

13.4.Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon ikkinchi tomonga yozma ravishda bildirishnoma yuboradi.

13.5.Shartnomani bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

14.Alohida shartlar.

14.1.Mazkur shartnoma Farg'ona tuman G'aznachilik boshqarmasidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi hamda 2022 yil 31 dekabrgacha amalda bo'ladi.Shartnoma 3 (uch) nusxada tuzildi.Uchala nusxa aynan bir xil va teng yuridik kuchga ega.

15.Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

“Buyurtmachi”

“Bajaruvchi”

Quva tuman obodonlashtirish boshqarmasi

Quva tumani Qayqubod ko'chasi 223

STIR:206041042

ShXR:100022860302187065200110003

Moliya Vazirligi G'aznachiligi


XR:23402000300100001010

Markaziybank Toshkent sh BB XKKM

MFO:00014, STIR:201122919

Boshliq:

N.Ab



“Fergana avtomat raschet” MCHJ

Farg'ona shaxri Lomonosov ko'chasi 5/1

Tel-73-244-59-84

XR:2020800050484450001

Farg'ona Universalbank

FO:01131

IR:301815162; OKED:43210

QS kodi:330050016288

rektor:

M.Karimov



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

XK5005000663

1. Loyihaning turi Shartnoma (Ekspertiza)

2. Loyihaning nomi Maxsulot sotish va sotib olish to‘g‘risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:

Quva tumani Obodonlashtirish bo‘limi tomonidan 2022-yil, 28-may kuni ishlab chiqilgan va xulosa, (30-may kuni qayta yuborilgan) 2022-yil 30-may kuni dasturga kiritilgan.

4. Loyiha bo‘yicha taklif:

Loyiha amaldagi qonunlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga;
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy-protsessual kodeksiga;
3. O‘zbekiston Respublikasi **“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”**gi Qonunining talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti

X.X.Mannobov



Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 85324 на приобретение Фаргона вилояти Қува туманидаги Қақир МФЙ ҳудудида янги қурилаётган кўп қаватли уйларни электр узатиш тармоқлари тортиш ҳамда трансформатор пункти ўрнатиш учун лойиҳа-смета, АРТ, муҳандислик-геологик

Способ проведения электронный

Дата 24.05.2022

Время рассмотрения 24.05.2022 09:33

Конкурсная комиссия Кува туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	ABDULLAYEV NORMATJON MAMADOVICH	Рахбар	Кува туман ободонлаштириш
Секретарь комиссии	KAMOLOV SHERZOD XALILOVICH	Бош хисобси	Кува туман Ободонлаштириш
Член комиссии	RAXMANOV JAMSHID JABBARALIYEVICH	Мухантис техник	Кува туман ободонлаштириш
Член комиссии	JO'RAYEV IXTIYORJON PO'LATOVICH	Мухандис техник	Кува туман Ободонлаштириш
Член комиссии	ABDUMINOV GULAMKADIR RIZAYEVICH	Мухандис ТХ	Кува туман Ободонлаштириш
Член комиссии	ISMOILOV AKBARALI MADRAXIMOVICH	Омборчи	Кува туман ободонлаштириш бошқармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 24.05.2022 года № лота 85324.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 15

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по проведению экспертизы проектно-сметной документации
Подробное описание	Фаргона вилояти Кува туманидаги Қақир МФЙ ҳудудида янги қурилаётган кўп қаватли уйларни электр узатиш тармоқлари тортиш ҳамда трансформатор пункти ўрнатиш учун лойиҳа-смета, АРТ, муҳандислик-геологик тадқиқотлари, экологик лойиҳа ва экспертиза, натижалари тўғрисидаги хулосалар, лойиҳа смета экспертизасини ўтказиш ҳужжатларини тайёрлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	20 000 000.00
Стартовая сумма	20 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танлов иштирокчиси банклардан қарздорлик (картотека)мавжуд эмаслиги ҳақида маълумот, ҳисоб рақамида объект қийматининг 30% миқдорида маблағи борлиги ҳақида ҳисоб рақам кўчирмаси, солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарзи йўқлиги ҳақида ДСИ маълумотномасини тақдим қилиши керак Маълумотномалар

тегишли банк ва ДСИлардан олиниши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Маълумотномалар тегишли банк ва ДСИлардан олиниши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО LEADER HORSE	10	1	5	Экспертная		
ООО FERGANA AVTOMAT RASCHOT	10	1	6	Экспертная		

Критерий №2 Танлов иштирокчиси ишларни бажариш учун зарурий техникларни мавжудлиги, малакали ишчи ходимларга эга эканлиги, сўнги уч йилда бажарган ишлари маълумоти, Инсофсиз етказиб берувчилар рўйхатида турмаслиги шарт Техникаларни тегишли хужжатлари, ходимлар ҳақидаги маълумот(ЖШШИР рақами билан) тақдим қилиниши керак.

Тип: Текстовое значение

Описание: Техникаларни тегишли хужжатлари, ходимлар ҳақидаги маълумот(ЖШШИР рақами билан) тақдим қилиниши керак

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО LEADER HORSE	10	1	5	Экспертная		
ООО FERGANA AVTOMAT RASCHOT	10	1	6	Экспертная		

Критерий №3 Танлов иштирокчиси ташкилотнинг тўлиқ номи, юридик манзили, солиқ ва банк маълумотларини, ташкилот гувоҳномаси, низомини тақдим қилиши керак

Тип: Текстовое значение

Описание: Барча хужжатлар ўзбек тилида тақдим қилиниши керак

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО LEADER HORSE	10	1	9	Экспертная		
ООО FERGANA AVTOMAT RASCHOT	10	1	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО FERGANA AVTOMAT RASCHOT	20 000 000.00	19 600 000.00	19.05.2022 15:37:08	20.00
ООО LEADER HORSE	20 000 000.00	19 950 000.00	18.05.2022 10:53:20	19.65

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО FERGANА AVTOMAT RASCHOT	58.6664	20	78.6664
ООО LEADER HORSE	50.6664	19.65	70.3164

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 85324 от 24.05.2022 года на приобретение Фаргона вилояти Кува туманидаги Қақир МФЙ ҳудудида янги қурилаётган кўп қаватли уйларни электр узатиш тармоқлари тортиш ҳамда трансформатор пункти ўрнатиш учун лойиҳа-смета, АРТ, муҳандислик-геологик определила победителем:

ООО FERGANА AVTOMAT RASCHOT
301815162

и резервный исполнитель: ООО LEADER HORSE (302820537)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ABDULLAYEV NORMATJON MAMADOVICH	Согласен	
Член комиссии	ISMOILOV AKBARALI MADRAXIMOVICH	Согласен	
Член комиссии	ABDUMINOV GULAMKADIR RIZAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	RAXMANOV JAMSHID JABBARALIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	JO'RAYEV IXTIYORJON PO'LATOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

